

MUSIQA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Avazova Ma'mura Erkinovna

*Toshkent shahri Olmazor tumani 29- umumiy
o'rta ta'lim maktabi musiqa fani o'qituvchisi.*

Annotatsiya:Maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar musiqa ta'limini rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish xamda musiqa ta'limida yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Musiqa madaniyati darslari, musiqa, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'quvchi, ahloq normalari, musiqa fani o'qituvchisi.

Musiqa sexrli kuchga ega,

u yovuzlikni yaxshilikka aylantiradi.

V. Shekspir

KIRISH

Bugungi kunda o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini musiqa fanini o'qitish jarayonida ularni malakalarini puxta egallash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Ushbu jarayonda asosiy rolni musiqa o'qituvchisi o'ynaydi. Uning faoliyatiga katta e'tibor berish zarur. Musiqiy ta'limning o'ziga xos jixatlaridan biri shundaki bugun musiqa o'qituvchilari egallagan maxsus bilimlar, yuqori kasbiy mahorat, umumiy madaniyat, g'oyaviy-axloqiy sifatlar, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni hal qilishning omili sifatida amalga oshirilmoqda. XXI asrda axborot kommunikatsiya ko'laminin keskin o'sishi, insonlarda ma'naviy extiyojning osishi yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifalarini yangi darajaga ko'tardi. CHunki, nafaqat ta'lim mazmuniga, balki tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish, o'quvchilarni madaniyatini o'stirish, uning yo'llari shakllariga ham talab oshmoqda. Musiqa madaniyati darslarda tarbiya masalalariga har tomonlama, tizimli yondashuv, tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishga faol ilmiy asoslangan uslub va vositalarini joriy qilish kelajakda iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot orasidagi o'zaro aloqalarni chuqurlashtirish imkoniyatini beradi. O'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanmasdan ta'limda yahshi natijalarga erishib bo'lmaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish masalasini ommalashtiradi. Bu esa pedagoglarning o'z faoliyatiga yangicha yondashivni talab etadi.

Har bir o'quvchiga uning shaxsiy hususiyatidan kelib chiqib, uning intellectual ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim- tarbiyajarayoniga biror psihologik

yoki pedagogik uslubni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ta'limda har qanday usulni qo'llashdan oldin, uni mantiqiy va nazariy jihatdan to'liq anglab olish zarur.

Buni amaliyotda qo'llash murakkab jarayondir. Musiqa o'qituvchilari bu jihatdan boshqa fan o'qituvchilaridan farqli o'laroq o'quvchilarni yosh hususiyatlarini xisobga olib individual yondashishlari kerak.

Maktab o'quvchisi shaxsining shakillanishiga ahloq normalari, hulq normalari, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni singdirish texnologiyalarini yaratish ko'pgina jihatdan yakuniy natijani ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogik texnologiya asosida ish olib boradigan o'qituvchi, garchi katta tajribaga ega bo'lmasada, ta'lim jarayoniga yuksak samaraga erishishi mumkin.

Quyida musiqa mashg'ulotlarda o'quvchilarning noan'anaviy dars usullari haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Mashg'ulot interfaol usulda guruhlariga ajratishdan boshlanadi. "Men qaysi guruh" o'yini. Guruhlarga nom berishda rangli qog'ozdan doirachalar qirqilib orqasiga milliy va yevropa cholg'u asboblari nomi yozib chiqiladi. O'qituvchi bolalarga rasmning rangli tamonini qo'yib bittadan olishlarini talab qiladi. Bolalar olgan doirachalarni faqat o'zlari o'qiydilar va navbat bilan aytadilar. Shundan so'ng o'qituvchi bolalarga milliy cholg'u asboblari yozilgan doirachalar bir tamonga, yevropa cholg'u asboblari yozilgan doirachalar ikkinchi tamonga o'tirib olishlari aytiladi. Shu tariqa guruhlar ajratiladi va o'zaro kelishikgan holda nom beriladi. Masalan: "Nazm va Navo", "Al't va Bass" va boshqalar.



Bu o'yinni tarbiyaviy ahamiyati shundaki Guruhlar ishtirok etadigan har bir o'quvchi o'z guruhida faol ishtirok etib o'z do'stlari, o'rtoqlari oldida mustaqil fikr yuririshga va boshqalarning fikrini hurmat qilishga o'rganadi.

“Musiqqa faniga oid iboralarni bilasizmi?” ushbu test topshirig‘ida har bir guruh ishtirokchilari o‘qituvchining tavsiyasi bilan belgilangan vaqt mobaynida tayanch iboralarni alohida varaqqa tartibi bilan yozib chiqadilar. Topshiriq yozilgan varoq yozuv taxtasi(doskasi)ga ilib qo‘yiladi va tahlil qilinadi. Takroriy so‘zlar ,yani musiqaga oid bo‘lmagan terminlar o‘qiladi.

Qaysi guruh ko‘proq begona terminlarni topsa va tahlil qilsa, o‘sha guruh g‘olib hisoblanadi.

“Intellectual ring” o‘yini. Bu o‘yinda bir necha variantda avvaldan tayyorlab qo‘yilgan savollarga guruh ishtirokchilari 1 daqiqa davomida javob beradilar. To‘g‘ri javob bergan guruh a‘zosiga rag‘bat kartochka berib boriladi. O‘yin ohirida kartochkalar jamlanadi. Qaysi guruh ko‘proq kartochka to‘plagan bo‘lsa shu guruh g‘olib hisoblanadi.

“Zinama-zina” o‘yini. Bu o‘yinda sinfdagi barcha bolalar 3 yoki 4 guruhga teng bo‘linishadi, har bir guruhdan bittadan bola o‘rtaga chiqadi va bir chiziqda turib oladi. O‘qituvchi va o‘quvchilar tamonidan turli savollar beriladi. O‘rtada turgan bolalar navbat bilan savollarga javob bera boshlaydildr.

To‘g‘ri javob bergan bola bir qadam oldinga yuradi. Shu tariqa 4-5 savol beriladi .O‘rtadagi bolalarni qay biri to‘g‘ri javob berib 4-5qadam oldinga siljisa o‘shq guruh yutgan hisoblanadi.

“Shashmaqom guldasta” o‘yini. Bolalar ikki guruhga bo‘linadilar .Guruhlar kelishilgan holda o‘zlariga nom beradilar.

Masalan”Nazm va Navo” o‘qituvchi doskaga bo‘sh guldona rasmini chizib qo‘yadi va guruhlariga quyidagicha topshiriq beradi :

1-guruhga rangli qog‘ozdan tayyorlangan gul yaproqlarini tarqatadi va “Shashmaqom” tarkibiga nechta maqom turkumlari kiritilgan?-deb savol beradi.

2- guruhga barg shaklidagi yaproqlar tarqatiladi va maqom kuylari qanday musiqa cholg‘ularda chalinadi?-deb savol beradi.

Bolalar tezlikda yaproqchalar orasiga javob yozadilar. To‘g‘ri javoblar doirada chizilgan guldonga ketma-ketlikda joylashtiriladi va chiroyli guldasta yasaladi. Agar berilgan topshiriq to‘g‘ri bajarilsa, o‘qituvchi mana bolalar biz ”Nazm va Navo”guruhlarini orqali” Shashmaqom” guldastasi yaratdik deb e‘lon qiladi.

Bunday qiziqarli o‘yinlar har chorakda o‘tkazib turish yaxshi natija beradi. Negaki o‘quvchilar musiqa darsida olgan bilimlarini takrorlab yangi atama va terminlarni o‘zlashtirib olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ta‘lim texnologiyalaridan foydalanib bu usullarni qo‘llash bolalarni o‘yin ishtirokchisi bo‘lishi bilan birga bilim saviyasini oshiradi.

To‘g‘ri javoblarni aniqlaydi, o‘z-o‘zini tekshiradi, baholaydi shuningdek, olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

Zero, musiqa mashgʻulotlarida bunday usullarni qoʻllashdan maqsad bolalarning musiqa savodxonligini oshirish bilan birga ularga estetik ruh bagʻishlaydi, kelajakda musiqa sanʼati yoʻlida xizmat qiladigan bilimli yetuk kadr boʻlishlarida boshlangʻich omil boʻlib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G.Sharipova.G` .Najmekdinov Musiqa o`qitish metodikasi praktikumi.
2. Apraksina.O.A.Maktablarda musiqiy tarbiya metodikasi.
3. D.Soipova Musiqadan o'qitish nazariyasi va metodikasi.
4. M.S. Muxiddinova “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida axborot-kompyuter texnologiyalarini musiqa tarbiyasi vositasi sifatida qoʻllashning xususiyatlari” 2020 yil.
5. Sh.R.Mahkamova “Imkoniyati cheklangan bolalar va xar tomonlama etuk avlodni tarbiyalashda musiqaning o‘rni” 2020.
6. M.A.Asadullaeva “YOshlarni ma’naviy tarbiyalashda qo‘shiqchilik san’atining tutgan o‘rni” 2020 yil.